



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **8 639** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2 578** taga yoki **23,0 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **1 794** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,6 %** kamaygan.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2024- y.		2025- y.
726	Oqoltin	593
982	Boyovut	694
894	Sayxunobod	611
927	Guliston	642
879	Sardoba	829
994	Mirzaobod	742
1 382	Sirdaryo	1 084
644	Xovos	503
2 674	Guliston sh.	2 081
295	Shirin sh.	198
820	Yangiyer sh.	662

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **8 639** tani, shundan, yangi tashkil etilganlari **1 794** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 081** tani yoki jamiga nisbatan **24,1** % ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Guliston sh.	20,7
Sardoba	19,1
Oqoltin	16,4
Guliston	14,1
Yangiyer sh.	13,8
Mirzaobod	13,3
Sayxunobod	12,6
Sirdaryo	12,2
Xovos	11,6
Shirin sh.	10,2
Boyovut	9,2

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **13,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **7,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **20,7** birlik, Sardoba tumanida **19,1** birlik, Oqoltin tumanida **16,4** birlik, Guliston tumanida **14,1** birlik va Yangiyer shaharda **13,8** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Guliston shahri
– 20,7 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Mirzaobod tumani
– 13,3 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Boyovut tumani
– 9,2 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 20,7 birlik, Sardoba tumanida 19,1 birlik, Oqoltin tumanida 16,4 birlik, Guliston tumanida 14,1 birlik, Yangiyer shahrida 13,8 birlik, Mirzaobod tumanida 13,3 birlik, Sayxunobod tumanida 12,6 birlik, Sirdaryo tumanida 12,2 birlik va Xovos tumanida 11,6 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Guliston shahri

20,7

Oqoltin tumani

16,4

Yangiyer shahri

13,8

Sardoba tumani

19,1

Guliston tumani

14,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

431	Guliston sh.	362
208	Oqoltin	174
189	Mirzaobod	204
290	Sardoba	178
184	Guliston	164
249	Sirdaryo	182
177	Boyovut	158
158	Sayxunobod	125
126	Xovos	109
153	Yangiyer sh.	107
38	Shirin sh.	31

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Guliston sh.	20,2
Mirzaobod	11,4
Sirdaryo	10,1
Sardoba	9,9
Oqoltin	9,7
Guliston	9,1
Boyovut	8,8
Sayxunobod	7,0
Xovos	6,1
Yangiyer sh.	6,0
Shirin sh.	1,7


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – **20,2 %**, Mirzaobod – **11,4 %**, Sirdaryo – **10,1 %**, Sardoba – **9,9 %** va Oqoltin tumanlari – **9,7 %** ga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **683** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **351** ta hamda sanoatda **260** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Guliston shahrida **362** ta, Mirzaobod tumanida **204** ta hamda Sirdaryo tumanida **182** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar ulishi % da



So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **11 326** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 338** (yoki **38,1** %) ta, xizmatlar sohasida – **2 003** (yoki **24,1** %) ta qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 495** (yoki **19,6** %) ta, sanoat sohasida – **1 842** (yoki **14,5** %) ta, va qurilishda – **648** (yoki **3,8** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023 ■ 2024


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,2** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **2,3** punktga ko'paygan.




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,2** % ni, yo'lovchi tashishda **95,2** % ni, chakana savdoda **94,3** % ni, qishloq xo'jaligida **93,9** % ni, yuk tashishda **93,7** % ni va yuk aylanmasida **86,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 127,6*** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (2 006,9 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (1 240,1 mlrd. so'm), Boyovut (1 153,7 mlrd. so'm), Guliston shahri (818,2 mlrd. so'm) va Sayxunobod tumanlarida (336,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Shirin shahrida (29,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




**Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda*


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so'm

2024- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **40,9 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Mirzaobod (**93,6 %**), Oqoltin (**87,7 %**), Yangiyer shahri (**86,4 %**), Boyovut (**75,1 %**), Xovos (**70,9 %**), Sardoba (**61,5 %**), Guliston shahri (**60,0 %**) va Sirdaryo (**51,4 %**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	975,7	94,0
Shirin sh.	78,1	26,2
Yangiyer sh.	357,0	100,0
Oqoltin	82,2	79,6
Boyovut	98,6	94,0
Sayxunobod	112,0	91,9
Guliston	137,7	89,2
Sardoba	172,5	90,8
Mirzaobod	675,3	77,7
Sirdaryo	423,8	90,2
Xovos	103,9	73,5

hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da


2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 272,2*** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,7 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish **110,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (**975,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**675,3** mlrd. so'm), Sirdaryo tumanida (**423,8** mlrd. so'm), Yangiyer shaharda (**357,0** mlrd. so'm), Sardoba (**172,5** mlrd. so'm), Guliston (**137,7** mlrd. so'm) hamda Sayxunobod tumanlarida (**112,0** mlrd. so'm) qayd etildi.

** Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda*

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati



2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 973,4 milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining 72,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 64,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Shirin shahar (3 304,2 mlrd. so'm), Boyovut tumani (1 246,8 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (772,3 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (646,0 mlrd. so'm), Guliston shahri (639,3 mlrd. so'm), Xovos tumani (355,9 mlrd. so'm), hamda Sardoba tumanlarida (292,1 mlrd. so'm) qayd etildi.


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **14 958,9** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **93,9** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **105,6** % ni tashkil qildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (2 192,3 mlrd. so'm), Sayxunobod (2 086,8 mlrd. so'm), Xovos (1 937,2 mlrd. so'm), Sirdaryo (1 906,2 mlrd. so'm), Guliston (1 728,6 mlrd. so'm) hamda Oqoltin tumanlarida (1 555,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Boyovut	2 192,3	99,2
Sayxunobod	2 086,8	92,6
Xovos	1 937,2	99,3
Sirdaryo	1 906,2	96,9
Guliston	1 728,6	99,4
Oqoltin	1 555,8	85,4
Mirzaobod	1 525,8	94,6
Sardoba	1 473,4	81,5
Guliston sh.	443,4	98,1
Yangiyer sh.	63,0	99,4
Shirin sh.	46,5	99,9


hajmi, mlrd. so'mda 
ulushi, % da 

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6 124,3*** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,3 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **110,2 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Guliston sh.	2 031,2	89,3
Sirdaryo	1 029,4	97,7
Yangiyer sh.	540,7	95,2
Mirzaobod	423,9	98,0
Boyovut	340,5	98,3
Oqoltin	298,2	99,0
Guliston	290,5	98,7
Sayxunobod	246,2	98,3
Xovos	229,6	99,5
Sardoba	191,1	98,0
Shirin sh.	87,5	100,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (2 031,2 mlrd. so'm), Sirdaryo (1 029,4 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (540,7 mlrd. so'm), Mirzaobod (423,9 mlrd. so'm), Boyovut (340,5 mlrd. so'm), va Oqoltin tumanlari (298,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

2020 va 2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da


** Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda*

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 772,5*** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,0 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **114,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri

(**1 069,3** mlrd. so'm), Sirdaryo (**790,0** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**433,6** mlrd. so'm), Mirzaobod (**264,2** mlrd. so'm), Xovos (**261,2** mlrd. so'm), Boyovut (**252,0** mlrd so'm) va Guliston tumanlari (**235,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

** Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda*

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi turlari 2024- yilning (yanvar-dekabr oylarida)

1 883,6	Savdo xizmatlari	94,2
3 392,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	95,4
1 108,2	Transport xizmatlar	99,3
178,4	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67,0
322,5	Boshqa xizmatlar	47,6
201,5	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	88,3
47,3	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,6
106,2	Ijara xizmatlari	76,8
30,0	Moliyaviy xizmatlar	1,2
58,7	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	19,3
54,4	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	12,0
213,5	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	99,2
175,8	Boshqa shaxsiy xizmatlar	100,0


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **95,4 %** (**3 392,4** mlrd. so'm), savdo xizmatlarida – **94,2 %** (**1 883,6** mlrd. so'm), transport xizmatlar – **99,3 %** (**1 108,2** mlrd. so'm) hamda boshqa xizmatlar **47,6 %** (**322,5** mlrd. so'm)ni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlar **1,2 %** (**30,0** mlrd. so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiyer sh.	66,1	95,1
Boyovut	32,5	84,4
Sirdaryo	27,5	39,9
Sayxunobod	20,2	68,0
Xovos	10,5	96,7
Oqoltin	5,0	69,3
Sardoba	4,8	58,2
Guliston sh.	3,9	17,0
Mirzaobod	3,7	49,5
Shirin sh.	1,0	88,9
Guliston	1,0	14,3

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **177,1** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **67,7** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xovos tumanida – **96,7** %, Yangiyer shahrida – **95,1** %, Shirin shahrida – **88,9** %, Boyovut tumanida – **84,4** %, Oqoltin tumanida – **69,3** %, Sayxunobod tumanida – **68,0** %, Sardoba tumanida – **58,2** % va Mirzaobod tumanida – **49,5** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **1,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **328,9** million AQSH dollarini yoki jami importning **84,2** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oqoltin tumanida – **100** %, Yangiyer shahrida – **99,9** %, Guliston tumanida – **99,2** %, Xovos tumanida – **97,6** %, Sayxunobod tumanida – **97,3** %, hamda Boyovut tumanida – **94,3** % ni tashkil etdi.


Oqoltin	100,0
Yangiyer sh.	99,9
Guliston	99,2
Xovos	97,6
Sayxunobod	97,3
Boyovut	94,3
Mirzaobod	82,7
Sirdaryo	74,0
Sardoba	74,0
Guliston sh.	70,9
Shirin sh.	20,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,7 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,8 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,3 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **540** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **126 (22,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **337 (60,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **77 (13,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **42,2 % (228 ta)**, xizmatlar sohasida – **23,3 % (126 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **16,5 % (89 ta)**, sanoatda – **7,8 % (42 ta)**, qurilishda – **10,2 % (55 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

142	Guliston sh.	26,3
12	Shirin sh.	2,2
45	Yangiyer sh.	8,4
46	Oqoltin	8,5
42	Boyovut	7,8
43	Sayxunobod	8,0
34	Guliston	6,3
45	Sardoba	8,3
32	Mirzaobod	5,9
65	Sirdaryo	12,0
34	Xovos	6,3


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (142 ta), Sirdaryo (65 ta), Oqoltin tumani (46 ta) va Sardoba tumani (45 ta), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida **138** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **126** ta yoki 2020- yilning IV choragiga nisbatan **12** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda **287** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **337** ta yoki **50** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **93** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **77** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan **16** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida **220** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **194** ta yoki 2020- yilga nisbatan **26** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida **152** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **258** taga yetgan yoki **106** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2020- yilning IV choragida **86** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **33** tani tashkil etib, **53** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **26,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **23,3** % ga yoki 2020- yilga nisbatan **3,3** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda **55,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **62,4** % yoki **7,0** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **18,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **14,3** % ga yetgan yoki **3,7** birlikka kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **48,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **40,0** % ga yoki 2020- yilning IV choragiga nisbatan **8,0** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning IV choragida **33,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib **53,2** % yoki **20,0** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning IV choragida **18,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **6,8** % yoki **12,0** birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – 32,7 % ni, savdoda – 26,4 % ni, sanoatda – 23,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida – 70,8 % ni, xizmatlar sohasida – 62,7 % ni, savdoda – 61,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida – 16,8 % ni, qurilishda – 16,4 % ni, xizmatlar sohasida – 15,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **46,9** % ni, savdoda – **45,7** % ni va qurilishda – **43,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **61,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **59,6** % ni va qurilishda – **50,9** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **7,1** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,6	48,0	14,4
Band bo'lganlar soni	18,8	69,2	12,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,2	51,7	11,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,7	59,4	11,9
Raqobat muhiti	37,4	53,6	9,0

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,4	51,5	6,1
Band bo'lganlar soni	24,4	70,2	5,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,4	57,0	5,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	33,7	60,4	5,9
Raqobat muhiti	40,0	55,2	4,8


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli